



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 2 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASIDA AKTUAR HISOBLARNI QULLASH VA RIVOSHLANTIRISH MASALALARI <i>Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich</i>	5
2.	SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA XORIJ TAJRIBASI <i>Nosirov Jasur Tursunpulotovich</i>	9
3.	ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SUG'URTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Yusupov Akbar Haydarovich</i>	14
4.	SUG'URTA SOHASIDA INNOVATSION MARKETING VA RAQAMLI REKLAMA STRATEGIYALARINI JORIY ETISH YO'NALISHLARI <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	18
5.	MIJOZLAR QAMROVINI OSHIRISH UCHUN SUG'URTA KOMPANIYALARIDA TIZIMLI MARKETING STRATEGIYALARINI AMALGA OSHIRISH <i>Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	21
6.	O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING HOLATI: MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	25
7.	PENSIYA SUG'URTASINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING ZARURIYATI VA DOLZARBLIGI <i>Yo'ldoshoval Aziza Muzaffar qizi</i>	28
8.	BANK XIZMATLARINI SUG'URTALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	30
9.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI <i>Iminova Nurjahon Qodirjon qizi</i>	34
10.	QISHLOQ XO'JALIGIDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH <i>Djumayev Jonibek O'rinovich</i>	38
11.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕРЕСТРАХОВОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ СТРАХОВОГО СЕКТОРА <i>Муминова Ансора Улдузбек кизи</i>	42
12.	СОВРЕМЕННЫЕ ДРАЙВЕРЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Зохидова Диёра Улдузбек кизи</i>	45
13.	O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI <i>Madiyev Abbas Nosirovich</i>	50
14.	QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNI ILMIY TASNIFLASH METODOLOGIYASI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	53
15.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	56
16.	KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING AHAMIYATI <i>Muratova Saodat Igamnazar qizi</i>	59
17.	TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI <i>E.I.Ergashev, Qarayev Anvar Botirovich</i>	63
18.	O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI <i>Kuldashev Jahongir Qamariddinovich</i>	67
19.	BANK TIZIMI BARQARORLIGI IQTISODIY RIVOJLANISH GAROVIDIR <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	71
20.	MILLIY IQTISODIYOTNI KREDITLASHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	73
21.	A SYSTEM OF INDICATORS FOR ENSURING THE ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS UNDER INCREASING SYSTEMIC RISK <i>Malikova Dilrabo Muminovna</i>	76

22.	IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHDA HUDUDIY MARKETINGNING FUNKSIONAL O'RNI VA AHAMIYATI <i>Mukhammadieva Nodira</i>	79
23.	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON RESURSLARIGA QILINGAN XARAJATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI <i>Usmanova Nigina Marupovna</i>	84
24.	НАЛОГОВАЯ РЕФОРМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР РОСТА СПРОСА НА УСЛУГИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА СРЕДИ МАЛОГО БИЗНЕСА <i>Холбеков Расул Олимович</i>	88
25.	O'ZBEKISTON TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI: IQTISODIY TA'SIRLAR, INSON KAPITALI VA REINTEGRATSIYA MUAMMOLARI <i>Ismatova Shoxsanam Abdulaziz qizi</i>	92
26.	O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI <i>Berdibayev Fayzulla Zariybayevich</i>	95
27.	ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR UZOQ VAQT BARQAROR FOYDA KELISHI KAFOLATI <i>Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich</i>	98
28.	SUG'URTA KAPITALIDAN INVESTITSIYA SIFATIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA BAHOLASH (DEA MODELI ASOSIDA) YO'LLARI <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	101
29.	RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI INDIVIDUAL SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI TAHLILI <i>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</i>	105
30.	TOSHKENT SHAHRIDA ANHOR KANALI BO'YLAB OSMA KABINALI JAMOAT TRANSPORT TIZIMINI YARATISH KONSEPSIYASI <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Kamolidinov Muhibillo Shokirjon o'g'li</i>	109
31.	SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNI ME'YORLASHTIRISHNING USLUBIY JIHLARI <i>Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li</i>	112
32.	METROLOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHLARI <i>Rakhmatillaev Nodirjon Yo'ldashvaevich</i>	114
33.	AN INTEGRATED RISK-BASED MODEL FOR ASSESSING THE EXTERNAL ENVIRONMENT OF SMALL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: IMPLICATIONS FOR THE INSURANCE MARKET <i>Djumabayeva Dilobar Asatillayevna</i>	116
34.	UY-JOY NARXLARINI HISOBLASHDA HEDONIK REGRESSIYA FORMULASIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI <i>Tog'ayeva Dildora Akramovna</i>	120
35.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ КЛАССИЧЕСКИХ И СОВРЕМЕННЫХ ПРИНЦИПОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ <i>Ахоров Зариф Орипович</i>	123
36.	RAQAMLI SOLIQ TIZIMLARINI JORIY ETISH VA ULARNING IQTISODIY TA'SIRI <i>Tuychiyev Sherxon Shuxrat o'g'li, Xubbimov Sherzod Jamshidovich</i>	126
37.	SOLIQQA TORTISHNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLILLAR ASOSIDA <i>Toshnazarova Lola Shuxratillayevna, Karimov Mardon Akram o'g'li</i>	129
38.	TURIZMDA INNOVATSIYALARNING HAYOTIYLIK SIKLI VA ULARNING BOZORGA CHIQUISH BOSQICHLARI <i>Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi</i>	133
39.	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH <i>Xalimov Shaxboz Xalimovich</i>	136

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



SOLIQQA TORTISHNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLILLAR ASOSIDA

Toshnazarova Lola Shuxratillayevna

TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti v.b., PhD
Email: toshnazarovelola86@gmail.com

Karimov Mardon Akram o'g'li

TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida
katta o'qituvchisi, PhD
Email: mardon.karimov93@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida bevosita va bilvosita soliqlarning iqtisodiy o'sishga ta'siri empirik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda 1992–2019 yillar uchun yillik vaqt qatorlari asosida xatolarni tuzatish modeli (ECM) qo'llanildi. Natijalar daromad va kapital soliqlari iqtisodiy o'sish bilan ijobiy, biroq statistik jihatdan ahamiyatsiz bog'liqlikka ega ekanini ko'rsatdi. Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) va tashqi savdo soliqlari esa iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatgani aniqlandi. Xatolarni tuzatish koeffitsiyenti uzoq muddatli muvozanatga moslashuv tezligi yiliga 50,56 foiz ekanini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari fiskal siyosatni takomillashtirish orqali iqtisodiy barqarorlikni saqlagan holda barqaror o'sishni ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Soliqqa tortish, soliq siyosati, iqtisodiy o'sish, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, xato tuzatish modeli (ECM), qo'shilgan qiymat solig'i, to'g'ri soliqlar, bilvosita soliqlar, fiskal siyosat, vaqt qatorlari tahlili, iqtisodiy barqarorlik.

Abstract: This article empirically examines the impact of direct and indirect taxes on economic growth in the economy of Uzbekistan. The study employs an Error Correction Model (ECM) based on annual time series data for the period 1992–2019. The results indicate that income and capital taxes have a positive but statistically insignificant relationship with economic growth. In contrast, value-added tax (VAT) and external trade taxes are found to exert a negative impact on economic growth. The error correction coefficient confirms that the speed of adjustment toward long-run equilibrium is 50.56 percent per year. The findings of the study highlight the necessity of improving fiscal policy in order to ensure sustainable economic growth while maintaining macroeconomic stability.

Keywords: Taxation, tax policy, economic growth, macroeconomic indicators, Error Correction Model (ECM), value-added tax (VAT), direct taxes, indirect taxes, fiscal policy, time series analysis, economic stability.

Абстрактный: В данной статье эмпирически анализируется влияние прямых и косвенных налогов на экономический рост в экономике Узбекистана. В исследовании применена модель коррекции ошибок (ECM) на основе годовых временных рядов за период 1992–2019 гг. Результаты показывают, что налоги на доходы и капитал имеют положительную, однако статистически незначимую связь с экономическим ростом. В то же время налог на добавленную стоимость (НДС) и налоги на внешнюю торговлю оказывают отрицательное влияние на экономический рост. Коэффициент коррекции ошибок подтверждает, что скорость адаптации к долгосрочному равновесию составляет 50,56% в год. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости совершенствования фискальной политики для обеспечения устойчивого экономического роста при сохранении макроэкономической стабильности.

Ключевые слова: Налогообложение, налоговая политика, экономический рост, макроэкономические показатели, модель коррекции ошибок (ECM), налог на добавленную стоимость (НДС), прямые налоги, косвенные налоги, фискальная политика, анализ временных рядов, экономическая стабильность.

Kirish (Введение/Introduction).

Soliq tizimi davlatning makroiqtisodiy siyosatida muhim vosita hisoblanib, iqtisodiy o'sish sur'atlari, bandlik darajasi, investitsion faollik va inflyatsiya jarayonlariga bevosita hamda bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbai sifatida soliqlar nafaqat fiskal vazifani bajaradi, balki iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish, resurslarni qayta taqsimlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Shu bois soliqqa tortishning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda global va milliy miqyosda soliq siyosatining iqtisodiy faollikka ta'siri masalasi iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, soliq yukining darajasi, soliqlar tarkibi va ularning iqtisodiy subyektlar xatti-harakatlariga ta'siri YaIM o'sishi, investitsiyalar hajmi hamda iste'mol dinamikasida sezilarli o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, soliqqa tortish mexanizmlarini empirik usullar asosida o'rganish, ularning makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan muhimdir.

Mazkur maqolada soliqqa tortishning asosiy elementlari hamda ularning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri empirik tahlillar asosida o'rganiladi. Tadqiqot doirasida iqtisodiy o'sish, bandlik va boshqa muhim makroiqtisodiy indikatorlar bilan soliq ko'rsatkichlari o'rtasidagi

bog'liqlik tahlil qilinib, olingan natijalar asosida soliq siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi (Анализ литературы/Literature review)

Bilvosita soliqlar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish ko'plab tadqiqotlarda endogen iqtisodiy o'sish nazariyasi asosida izohlanadi. Ushbu yondashuv Ilaboya tomonidan rivojlantirilgan bo'lib, unda davlat siyosati, jumladan soliq siyosati, aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sishiga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ta'kidlanadi [1]. Endogen o'sish modeli doirasida soliqlar va davlat xarajatlari iqtisodiy o'sishga qisqa va uzoq muddatda barqaror ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ilmiy adabiyotlarda keng muhokama qilingan [2].

Mazkur nazariy asosdan kelib chiqib, bilvosita soliqlar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabatlarga bag'ishlangan empirik tadqiqotlarda turli natijalar kuzatiladi. Xususan, Ukpabi vektor xatolarni tuzatish mexanizmi (VECM) yordamida bilvosita soliqlarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qilgan [3]. Tadqiqot natijalari qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) iqtisodiy o'sish bilan ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlikka ega ekanini, bojxona va aksiz yig'implari esa salbiy va ahamiyatsiz ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Ushbu xulosa Geetanjali va

Venugopal tomonidan Hindiston misolida o'tkazilgan tadqiqot natijalari bilan hamohangdir [4].

Bazgan to'g'ri va bilvosita soliqlarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini 2009–2017 yillar uchun choraklik ma'lumotlar asosida VAR modeli yordamida baholagan [5]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bilvosita soliqlar tuzilmasidagi ijobiy o'zgarishlar o'rta muddatda iqtisodiy o'sishga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlar bilvosita soliqlarning salbiy ta'sirini qayd etadi. Jumladan, Hosen Bangladesh misolida 1972–2015 yillar uchun VECM modelidan foydalangan holda, bilvosita soliq tushumlarining oshishi uzoq muddatda YaIMning qisqarishiga olib kelishini aniqlagan [6]. Muallif iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlash uchun soliq siyosatini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlariga mos ravishda isloh qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Phiri Janubiy Afrika Respublikasida to'g'ri va bilvosita soliqlarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini silliq o'tish regressiyasi (STR) modeli asosida tahlil qilgan. Natijalar bilvosita soliqlar uchun 10,27 foizlik optimal daraja mavjudligini ko'rsatib, ushbu chegaradan past bo'lganda bilvosita soliqlar o'sishga ijobiy, to'g'ri soliqlar esa salbiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan [7].

Owino Keniya iqtisodiyotida soliq turlari va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni kointegratsiya va ECM modellari yordamida baholab, to'g'ri soliqlarning salbiy, bilvosita soliqlarning esa ijobiy ta'sirini aniqlagan [8].

Nigeriya misolida olib borilgan tadqiqotlarda ham qarama-qarshi natijalar uchraydi. Ibadin va Oladipupo ECM modeli asosida QQS va neft uchun foyda solig'ining real YaIMga ijobiy ta'sirini aniqlagan bo'lsa, Ilaboya va Mgbame hamda Oshoke va Uke QQSning iqtisodiy o'sishga salbiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta'sir ko'rsatishini qayd etgan [9].

Shuningdek, Asllanaj, Hajdari va Berisha (2018) Kosovo iqtisodiyotida soliq tuzilmasi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni Granger sababiyat testi va regressiya tahlili orqali baholab, QQS va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan [10].

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bilvosita soliqlarning iqtisodiy o'sishga ta'siri mamlakatning iqtisodiy tuzilmasi, soliq yukining darajasi va fiskal siyosat samaradorligiga bevosita bog'liq. Ushbu holat O'zbekiston sharoitida ham bilvosita soliqlar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabatni empirik jihatdan chuqur o'rganish zarurligini asoslab beradi.

Tadqiqotlar metodologiyasi (Методология исследования/ Research Methodology)

Ushbu tadqiqotda 1992–2019 yillar oralig'ini qamrab oluvchi ikkilamchi statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulletenlari asosida shakllantirildi. Tadqiqotda soliq tushumlari va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun zamonaviy ekonometrik usullar qo'llanildi. Iqtisodiy o'sish va soliqlar o'rtasidagi munosabatlarni baholashda Bâzgan (2019) yondashuviga asoslanilib, to'g'ri va bilvosita soliqlarning iqtisodiy o'sishga ta'siri tahlil qilindi. Ma'lumotlar qatorining stasionarlik xususiyatlariga qarab model tanlandi va vaqt qatorlari ADF (Augmented Dickey-Fuller) testi yordamida tekshirildi. Tadqiqotning umumiy empirik modeli quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$GDPGR_t = \alpha + \beta_1 DIR_TAX_t + \beta_2 IND_TAX_t + \varepsilon_t$$

Bu yerda,

GDPGR – real yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati,

DIR_TAX – to'g'ri soliqlar,

IND_TAX – bilvosita soliqlar,

α – doimiy had,

ε_t – approksimatsiya xatoligi.

O'zbekiston sharoitini hisobga olgan holda, model quyidagi asosiy soliq ko'rsatkichlari orqali aniqlashtirildi: $GDPGR_t = \beta_0 + \beta_1 PIT_t + \beta_2 VAT_t + \beta_3 TIT_t + \varepsilon_t$

Bu yerda,

PIT – jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan daromad va foyda soliqlari (YaIMga nisbatan),

VAT – qo'shilgan qiymat solig'i (YaIMga nisbatan),

TIT – tashqi savdo bilan bog'liq soliqlar (bojxona to'lovlari) (YaIMga nisbatan),

β_0 – intercept,

$\beta_1 - \beta_3$ – baholanayotgan parametrlar.

Qisqa va uzoq muddatli bog'liqliklarni aniqlash maqsadida **xatolarni tuzatish modeli (Error Correction Model – ECM)** qo'llanildi. ECM quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$\Delta GDPGR_t = \beta_0 + \sum_{i=1}^n \beta_1 \Delta GDPGR_{t-i} + \sum_{i=1}^n \beta_2 \Delta PIT_{t-i} + \sum_{i=1}^n \beta_3 \Delta VAT_{t-i} + \sum_{i=0}^n \beta_4 \Delta TIT_{t-i} + \beta_5 ECT_{t-1} + \varepsilon_t$$

Bu yerda,

Δ – o'zgarish operatori,

n – kechikishlar soni,

ECT_{t-1} – xatolarni tuzatish hadi bo'lib, u uzoq muddatli muvozanatga qaytish tezligini ifodalaydi,

ε_t – approksimatsiya xatoligi.

Mazkur metodologiya orqali O'zbekiston iqtisodiyotida soliq turlari va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi qisqa hamda uzoq muddatli munosabatlar empirik jihatdan baholandi.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты/Analysis and results)

1-jadvalda tadqiqot modelida foydalanilgan o'zgaruvchilarning deskriptiv statistik ko'rsatkichlari keltirilgan. Natijalarga ko'ra, 1992–2019 yillar davomida O'zbekistonda real YaIM o'sish sur'ati o'rtacha 4,96 foizni tashkil etgan bo'lib, uning eng past darajasi –1,58 foiz, eng yuqori darajasi esa 14,60 foizni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkichlar iqtisodiy o'sish sur'atlarining tadqiqot davrida sezilarli darajada o'zgarib borganini ko'rsatadi.

1-jadval.

O'zbekiston Respublikasida 1992–2019 yillar davomida iqtisodiy o'sish va soliq tushumlari ko'rsatkichlarining deskriptiv statistik tahlili¹

Statistik parametrlar	YaIM o'sishi	Foyda va daromad soliqlari	QQS	Umumiy soliqlar
O'rtacha	4.959547	0.009124	0.008877	0.010632
Median	5.307924	0.008588	0.008878	0.010420
Maksimum	14.60438	0.013391	0.011284	0.020967
Minimum	-1.583065	0.005821	0.004118	0.005345
Standart og'ish	3.697189	0.002136	0.001342	0.004435
Egriqlik	0.497786	0.323605	-1.340904	0.471865
Kurtosis	3.013287	2.032177	6.898421	2.128364
Jarque-Bera	1.115256	1.581490	26.12140	1.925440
Ehtimollik	0.572566	0.453507	0.000002	0.381853
Yig'indisi	133.9078	0.255467	0.248547	0.297699
Kvadratlar yig'indisi	355.3993	0.000123	0.0000486	0.000531
Kuzatuvlar soni	27	28	28	28

Daromad va foyda soliqlari (YaIMga nisbatan) o'rtacha 0,0091 foiz, qo'shilgan qiymat solig'i esa 0,0089 foiz atrofida bo'lgan. Tadqiqot davrida daromad va kapital soliqlarining eng yuqori qiymati 0,013 foiz, eng past qiymati esa 0,0058 foizni tashkil etgan. QQS ko'rsatkichi esa 0,0041 foizdan 0,011 foizgacha bo'lgan oraliqda tebrangan.

Shuningdek, tashqi savdo bilan bog'liq soliqlar (bojxona to'lovlari) o'rtacha 0,011 foizni tashkil etib, eng yuqori darajasi 0,021 foizga yetgani kuzatilgan. O'zgaruvchilarning vaqt davomida harakatlanish dinamikasi 1-rasmda grafik ko'rinishida aks ettirilgan. [11].

2-jadval.

Kengaytirilgan Dickey-Fuller (ADF) birlik ildiz sinovi natijasi²

O'zgaruvchi	ADF testi statistikasi	Tanqidiy qiymat (5% gacha)	Integratsiya darajasi	Xulosa
YaIM o'sishi	-5.743128	-2.986225	I(1)	Stasionar
Foyda va daromad solig'i	-5.442914	-2.981038	I(1)	Stasionar
QQS	-4.177196	-3.658446	I(1)	Stasionar
Umumiy soliqlar	-3.411793	-2.986225	I(1)	Stasionar

Normal taqsimot xususiyatlarini baholash maqsadida Jarque-Bera (J-B) testi qo'llanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, YaIM o'sish sur'ati, daromad va kapital soliqlari hamda tashqi savdo soliqlari uchun J-B testining ehtimollik qiymati 5 foizdan yuqori bo'lib, bu o'zgaruvchilarning normal taqsimlanganligini anglatadi. Aksincha, QQS ko'rsatkichi uchun J-B testining ehtimollik qiymati 5 foizdan past bo'lib,

¹ Muallif tomonidan mustaqil tarzda tayyorlangan.

² Muallif tomonidan mustaqil tarzda tayyorlangan.

mazkur o'zgaruvchining normal taqsimotga ega emasligini ko'rsatadi. deskriptiv statistik tahlil natijalari tadqiqotda foydalanilgan o'zgaruvchilar iqtisodiy o'sish bilan bog'liq empirik baholashlarni amalga oshirish uchun yetarli statistik xususiyatlarga ega ekanini tasdiqlaydi.

2-jadvaldagi stasionarlik testining natijalari shuni ko'rsatadiki, tadqiqotda foydalanilgan o'zgaruvchilar birlamchi farqlashdan so'ng stasionar bo'lib, hech qanday birlik ildizga ega emas. Barcha o'zgaruvchilar I(1) darajasida bo'lgani uchun, modelni baholashda xato tuzatish modeli (Error Correction Model, ECM) usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu esa soliq tushumlarining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini aniqlashda ishonchli va samarali natijalar olish imkonini beradi.

3-jadval.

Regressiya natijalari: Xato tuzatish modeli (ECM)³


O'zgaruvchi	Koeffitsien t	Std. Error	t-Statistik	Prob.
D(ICGT)	598.5025	397.4658	1.505796	0.1470
D(VAT)	-1012.500	418.0002	2.422249	0.0264
D(TOINT)	-234.3301	174.3108	1.344323	0.1932
ECT(-1)	-0.505571	0.130098	3.886088	0.0009
C	0.060440	0.438125	0.137951	0.8916
Determinatsiya	0.521587	Endogen o'zgaruvchilar o'rtacha qiymati	-	0.010134
Tuzatilgan determinatsiya	0.430461	Endogen o'zgaruvchilar standart og'ishi	2.865510	-
Approksimatsiya xatoligi	2.162538	Akaike axborot mezoni	4.551483	-
Qoldiqlar kvadratlari yig'indisi	98.20796	Shvarts axborot mezoni	4.793425	-
Logarifmik ehtimollik funksiyasi	-54.16928	Hannan-Kuin axborot mezoni	4.621154	-
F-statistika	5.723788	Durbin-Uotson statistikasi	1.779006	-
F-statistikaning ehtimollik qiymati	0.002814			

3-jadvalda keltirilgan regressiya natijalari shuni ko'rsatadiki, daromad va kapitalga soliq (ICGT) iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatsa-da, mazkur bog'liqlik statistik jihatdan sezilarli emas. Boshqacha aytganda, ICGT tushumlarining o'sishi YaIM o'sish sur'atlarini oshirish tendensiyasiga ega bo'lsa-da, bu ta'sir ishonchli darajada tasdiqlanmagan. Hisob-kitoblarga ko'ra, ICGT bir birlikka oshganda, yillik YaIM o'sishi o'rtacha 598,5 birlikka ko'tariladi. Aksincha, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) iqtisodiy o'sishga salbiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, QQS tushumlarining bir birlikka o'zgarishi YaIM o'sishining 1012,5 birlikka kamayishiga olib keladi. Bu holat QQS yukining oshishi qisqa muddatda iqtisodiy faollikni susaytirishi mumkinligini ko'rsatadi. Shuningdek, xalqaro savdoga solinadigan soliqlar ham iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

- Ilaboya, O. J. (2012). Indirect tax and economic growth. Research Journal of Finance and Accounting, 3(11), 70–83.
- Ojo, A. E., & Oladipo, F. O. (2017). Tax and taxation in Nigeria: implications on the construction industry sector. International Journal of Civil Engineering, Construction and Estate Management, 5(4), 44–57.
- Ukpabi, L. A. (2019). Impact of indirect taxation on economic growth in Nigeria. International Journal of Advanced Engineering Research and Science, 6(5), 1–8.
- Geetanjali, J. V. R., & Venugopal, P. (2016). Impact of direct taxes on GDP: A Study. IOSR Journal of Business and Management (IOSR-JBM), 2(1), 21–27.

Bundan tashqari, model natijalari tanlangan regressorlardan foydalanish iqtisodiy o'sish jarayonlarini tushuntirishda yetarli darajada samarali ekanligini tasdiqlaydi. Xato tuzatish termini (ECT) manfiy belgi bilan chiqib, 5 foizlik ishonchlik darajasida statistik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi. Bu esa qisqa muddatdagi muvozanatdan og'ishlar uzoq muddatli muvozanatga yillik asosda taxminan 50,56 foiz tezlik bilan moslashib borishini anglatadi.

1-diagramma. Rekursiv baholashning Cusum test natijasi⁴

1-rasmda keltirilgan CUSUM testi natijalari regressiya modelining tadqiqot davri mobaynida barqaror ekanligini tasdiqlaydi. Grafikda CUSUM chizig'i 5 foizlik ishonchlik chegaralari ichida joylashgan bo'lib, bu model parametrlarida sezilarli strukturaviy uzilishlar mavjud emasligini ko'rsatadi. Mazkur holat soliq tushumlari va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik vaqt davomida izchil saqlanib qolganini anglatadi. Shuningdek, CUSUM testi natijalari xato tuzatish modeli asosida olingan regressiya baholarining ishonchliligini va empirik natijalarning barqarorligini tasdiqlaydi.

Xulosa (Заключение/Conclusion)

Mazkur tadqiqotda to'g'ri va bilvosita soliqlarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash maqsadida xato tuzatish modeli (ECM) asosida empirik tahlil amalga oshirildi. Tadqiqotda O'zbekiston iqtisodiyotiga oid yillik vaqt qatorlari ma'lumotlaridan foydalanildi. Olingan natijalar daromad va kapitalga soliq iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini, biroq ushbu ta'sir statistik jihatdan yetarlicha sezilarli emasligini ko'rsatdi. Bu holat mazkur soliqlar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda cheklangan rol o'ynayotganini anglatadi. Shu bilan birga, qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiy o'sishga ta'siri salbiy va statistik jihatdan ahamiyatli ekani aniqlandi. Ushbu natija QQS yukining oshishi ishlab chiqarish xarajatlari hamda iste'mol hajmiga bevosita ta'sir ko'rsatib, iqtisodiy faollikni susaytirishi mumkinligini tasdiqlaydi. Xalqaro savdoga solinadigan soliqlar ham iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani aniqlanib, tashqi savdo oqimlarini rag'batlantirishda ehtiyotkor fiskal yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

ECM natijalari tanlangan o'zgaruvchilarning iqtisodiy o'sish jarayonlarini tushuntirishda umumiy holda ahamiyatli ekanligini ko'rsatsa-da, iqtisodiy o'sish faqat soliqlar dinamikasi bilan belgilanmasligini ta'kidlash lozim. Iqtisodiy o'sishga investitsiyalar hajmi, institutsional sifat, inson kapitali, makroiqtisodiy barqarorlik va tashqi iqtisodiy omillar kabi boshqa muhim determinantlar ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan fiskal siyosat byudjet daromadlarini mustahkamlash, jamoat xarajatlarini barqaror moliyalashtirish hamda uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim tayanch omil bo'lib qolmoqda. Ushbu jihatdan, soliqqa tortish mexanizmlarini iqtisodiy faollikni susaytirmagan holda takomillashtirish va soliq yukini oqilona taqsimlash O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim.

³ Muallif tomonidan mustaqil tarzda tayyorlangan.

⁴ Muallif tomonidan mustaqil tarzda tayyorlangan.

CUSUM - Cumulative Sum of Recursive Residuals. CUSUM testi regressiya modelining vaqt davomida barqarorligini tekshirish uchun qo'llaniladi.

5. Bâzgan, R. M. (2018). The impact of direct and indirect taxes on economic growth: An empirical analysis related to Romania. Proceedings of the 12th International Conference on Business Excellence 2018, 1–14. <https://doi.org/10.2478/picbe-2018-0012>
6. Hosen, A. (2019). GDP growth and indirect taxation in Bangladesh: Related issues, consequences and expectation. *International Journal of Business and Economics Research*, 8(5), 286–296. <https://doi.org/10.11648/j.ijber.20190805.15>
7. Phiri, A. (2015). The growth trade-off between direct and indirect taxes in South Africa: EVIDENCE from a STR model. *Managing Global Transitions*, 14(3), 233–250.
8. Owino, O. B. (2018). The trade off between direct and indirect taxes in Kenya: An empirical analysis. *Journal of Economics and Development Studies*, 6(4), 187–201. <https://doi.org/10.15640/jeds.v6n4a16>
9. Ibadin, P. O., & Oladipupo, A. O. (2015). Indirect taxes and economic growth. In. *Ekon. Misao i praksa DBK. GOD*, XXIV, 345– 364.
10. Asllanaj, R., Hajdari, V., & Berisha, V. (2018). Growth effects of tax structure: Evidence from Kosovo. *ACTA UNIVERSITATIS DANUBIUS*, 14(6), 506–521
11. Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich. (2025). Sug'urta xizmatlariga bo'lgan iste'mol talabini oshirishning innovatsion yo'llari. *Insurance market of Uzbekistan*, 2(6), 4–8. https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss6/336